



JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA MADANIYATNI  
YUKSALTIRISH.

*Norqulova Husnora Nodirovna*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Xorijiy til va adabiyoti: nemis tili  
fakulteti 1-kurs 761-guruh talabasi*

[noranorkulova06@gmail.com](mailto:noranorkulova06@gmail.com)

*Tel: +998 99 158 39 06*

**Anontatsiya:** Ushbu maqola yurtimizda fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini oshirish bo'yicha chora - tadbirlar to'g'risida yozilgan. Hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" orqali aholining huquqiy madaniyatini o'zgartirish ,qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish va amalga tatbiq etish kabi vazifalarni qamrab olgan.

**Kalit so'zlar:** Huquq , Huquqiy madaniyat , Huquqiy ong Fuqarolar , Jamiyat , O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Oliy Majlis , Qaror , Farmon.

**PROMOTING LEGAL AWARENESS AND CULTURE IN  
SOCIETY.**

**Annotation:** This article is about citizens our country measures to increase legal awareness and culture are written. And through the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the "National Program for improving legal culture in society" adopted by the Oliy Majlis, it coveres tasks such as changing the legal culture of the population, forming and implementing the spirit of respect for laws

**Keywords:** Law, Legal culture, Legal awareness citizens, Society, Constitution of the Republic of Uzbekistan, Oliy Majlis, Decision, Decree.



## ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ.

**Аннотация:** В данной статье написано о мерах по повышению правового сознания и культуры граждан в нашей стране. А через Конституцию Республики Узбекистан и принятую Олий Мажлисом “Национальную программу повышения правовой культуры в обществе” освещаются такие задачи, как изменение правовой культуры населения, формирование и реализация духа уважения к законам.

**Ключевые слова:** Закон, Правовая культура , Правосознание Граждане Общество, Конституция Республики Узбекистан, Олий Мажлис , Постановление , Указ .

Huquqiy ong – bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo’lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo’lgan g’oyalar, his-tuyg’ular, tasavvurlar yig’indisidir. Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon,adolat va qonuniylik, insonga nisbatan yuksak hurmat va e’tirof, sabr-toqat kabi ma’rifat va haqiqat tuyg’ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo’lida fidokorona mehnat qilishga yo’naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni ta’minlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Avvalo, huquqiy madaniyat tushunchasiga ta’rif beradigan bo’lsak, Huquqiy madaniyat- umumiyligi madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Insonlar ongida shunday ishonch qaror topishi kerakki, huquqiy bilmlarga ega bo’lgan va ularni amaliyotda tatbiq eta oladigan kishigina madaniyatli va bilimli deb hisoblanishi mumkin. U.Tajixanov va A.Saidovlar esa o’zlarining “ Huquqiy madaniyat nazariyasi” nomli kitobida huquqiy madaniyatga shunday ta’rif berishadi: “



Huquqiy madaniyat jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darjasи, xalqning bu huquq tizmidan xabardorligи, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmatи, huquq normalarning ijro etilishi va qonunga itoatkorlik darjasи<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda fuqarolarimizning huquqiy ong va madaniyati quvonarli emas albatta. Oddiygina kundalik turmushimizda bo'ladigan huquqlardan to'g'ri va samarali foydalana olmaymiz. Huquq va qonunni faqatgina huquqshunoslar o'r ganishi kerak degan qoida hech qayerda yozilmagan. Yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir fuqaro o'zining huquq va majburiyatlarini o'r ganib olishi lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham bu huquq va majburiyatlar berilgan. Yurtimizda sodir bo'layotgan huquqbazarliklarning asosiy sababi ham aynan fuqarolarimizning huquqiy ongi va madaniyatining pastligida. Misol uchun ko'chada ketayotgan har qanday bir fuqaroni to'xtatib, undan so'rasak o'zining qanday konstitutsiyaviy huquq va majburiyatları borligini bilmaydi. Buning yechimini ham topsa bo'ladi. Agar maktab darsliklarida 5-sinfdan boshlab konstitutsiya darsliklari o'tilsa , shundagina fuqarolarimizda mas'uliyat va qonunga itoatkorlik hissi paydo bo'ladi.

Huquqiy ong va madaniyatni oshirish borasida mamlakatimizda ham bir qancha chora- tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, mustaqilligimizga erishganimizdan so'ng, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga katta e'tibor berildi. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilingan edi<sup>2</sup>. Unda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, va sud hokimiyati xodimlarining bilimdonligiga ko'p jihatdan bog'liqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag'batlantirish, ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish va boshqa masalalar

<sup>1</sup> .U.Tajixanov, A.Saidov.Huquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom. Toshkent.1998,11-b

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-249352>



o’z aksini topgan. Bundan tashqari , 2017-yil 7-fevraldagagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Prezident farmoni, 2017-yil 7-sentabrda qabul qilingan “ Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to’g’risida”gi qonun<sup>3</sup>, 2018-yil 13-apreldagi “ Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to’g’risida”gi Prezident farmoni, 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizmini tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi Prezident farmoni va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganini ko’rishimiz mumkin.

Aholining qonunlarga huquqiy jarayonlarga ishtirokini va ularning xabardorlik darajasini aniqlash uchun alohida jamoatchilik fikri so’rovleri ham o’tkazilib turiladi. Misol tariqasida 2017-yilda “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o’rganish markazi tomonidan “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-yilligi” mavzusida jamoatchilik fikri so’rovi o’tkazilgan edi. Bundan tashqari, 2023-yil 30-avgust yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi munosabati bilan ham keng jamoatchilik fikri o’tkazildi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo’lsak, qabul qilinayotgan qonunlar, har qanday normativ-huquqiy hujjatlar, huquq sohasida bo’ladigan o’zgarishlardan to’liq tarzda xabardor bo’lib, o’rganib chiqilishi natijasida huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksak darajada shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda “ Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish-demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”. Shunday ekan, qonunlarning samarali ishlashi uchun fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini, huquqiy mafkurasini yuksaltirish juda muhim. Aholining barcha tabaqalari, ayniqsa yosh avlodning huquqiy bilim saviyasini yuqori darajaga ko’tarish bilan biz qonun buzilishlari,adolatsizliklar, jinoyatlarning oldini olgan bo’lamiz. Zero,

<sup>3</sup> <https://lex.uz/acts/-3329163>



har bir fuqaro iqtisodiy va siyosiy islohatlar jadal o'tkazilayotgan hozirgi davrda qayerda ishlamasin, xizmat qilmasin, o'qimasin, har qadamda huquqiy bilimga ehtiyoj sezishi tayin. Shunday ekan biz yoshlar jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun o'z hissamizni qo'shamiz, eng birinchi navbatda huquqiy qonun va normalarga o'zimiz amal qilib o'rnak bo'lishimiz darkor.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b
- 2.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 29.08.1997-yil 466-I son qarori bilan tasdiqlangan .Norma.uz.
- 3.“ Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi” mavzusida jamoatchilik fikri so'rovi.Kun.uz.24.11.2017
- 4.Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi(darslik).-T.:” Adolat”,2018,287-b
- 5.U.Tajixanov, A.Saidov.Huquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom. Toshkent.1998,11-b
- 6.Lex.uz